

Fayziyeva Shahribonu

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 403-guruh talabasi

Annotatsiya: *Quyidagi ilmiy maqolada O'tkir Hoshimov asarlari ilmiy tahlili, va ularda urush mavzusining ifodalanishi xususidagi ma'lumotlar tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *Urush asorati, urush mavzusi, „Ikki eshik orasi“, qahramon ruhiyati, mafkura targ'iboti, „Daftar hoshiyasidagi bitiklar“, „Urushlar haqida“*

KIRISH

O'tkir Hoshimov – taniqli o'zbek yozuvchisi va jamoat arbobi. 1941-yili 5-avgustda Toshkentda Do'mbirobod mahallasida tug'ilgan. Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetida o'qigan. Turli tahririyat va nashriyotlarda ishlagan. Shuningdek, u O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar qo'mita raisi vazifasini bajargan. O'tkir Hoshimov 1941-yil, 5-avgustda Toshkent shahrida oddiy bir oilada dunyoga keldi. Yozuvchining bolaligi urush va urushdan keyingi mashaqqatli davrga to'g'ri keldi. „O'sha davrda non tanqis bo'lgani bilan kutubxonalarda kitob ko'p edi“, deya eslagan edi yozuvchi o'z xotiralarida.[1]

Kitob o'qish barobarida O'tkir Hoshimov pochtada xat tarqatuvchi bo'lib ishladi. Aynan mana shu ish O'tkir Hoshimovni oddiy odamlarning kitobdagi hayotdan butunlay boshqa turmushiga oshno qildi.

Bo'lajak yozuvchi 1964-yilda O'zbekiston Milliy universitetining (sobiq ToshDU) filologiya fakulteti jurnalistika bo'limini sirdan tugatdi.

1959–1962-yillari „Qizil O'zbekiston“, 1963–1966-yil „Toshkent haqiqati“ 1966–1982-yillari „Toshkent oqshomi“ gazetalarida adabiy xodim bo'lib ishladi. Uning kitoblari juda qiziqarli va hayotiy kitob hisoblanadi "Ikki eshik orasi" va "Dunyoning ishlari" asarlari juda sevimli va mashhur. Adibning "Dunyoning ishlari" qissasi 1982-yil yaratilgan. Yozuvchining ilk asari 1962-yilda „Po'lat chavandoz“ nomida ocherklar to'plami tarzida nashrdan chiqdi. Ammo yozuvchiga muvaffaqiyat keltirgan asar 1970-yilda nashr qilingan „Bahor qaytmaydi“ qissasi bo'ldi.

METODOLOGIYA

O'sha paytda nashr qilinayotgan mafkura targ'ibotidan iborat asarlar fonida yozuvchi O'tkir Hoshimovning oddiy insoniy munosabatlar haqidagi bu asari qorong'u osmonda chaqnagan mushak kabi eslanadi. Bu asar asosida suratga olingan videofilm o'z vaqtida eng ko'p tomosha qilingan asar sifatida tarixga kirdi.

O'tkir Hoshimovning bir qancha asarlari ekranlashtirilgan. „Xazon bo'lgan bahor“, „Inson sadoqati“ (1975), „Vijdon dorisi“, „To'ylar muborak“ (1979), „Qatag'on“ kabi drama, komediya, bir qator kinossenariylar muallifi. „Daftar hoshiyasidagi bitiklar“ (2001) kitobi ijtimoiy -ma'naviy hayotda muayyan iz qoldirgan. O'tgan asrning sovet mafkurasi hukmron bo'lgan 70-yillarida O'tkir Hoshimov O'zbekiston televideniesida „Bahs“ deb nomlangan eshittirishlarni olib bordi. Bu eshittirishlar yozuvchining „Qalbingga quloq sol“

„Dunyoning ishlari“ „Nur borki, soya bor“ kabi asarlarida ko‘tarilgan o‘tkir ijtimoiy muammolar haqidagi bahslarning davomi bo‘ldi.

Keyinchalik yozuvchi „Ikki eshik orasi“ (1986), „Tushda kechgan umrlar“ (1994) romanlarida zamondosh-asrdosh odamlar taqdirini, 20-asrning eng keskin fojiviy hodisalari Ikkinchi jahon urushi hamda mustabid tuzumning jinoyatkorona siyosati oqibatlarini bilan bog‘liq holda tahlil va talqin etishga urindi.

Hali O‘zbekistonda Sovet mafkurasi hukmron bo‘lgan 1990-yilda O‘tkir Hoshimov o‘zi bosh muharrir bo‘lgan „Sharq yulduzi“ jurnalida Qur‘oni karimning ilk o‘zbekcha tarjimasini chop qilishga jur‘at qildi.

Tarixga Gorbachev hurriyati deya kirgan "Qayta qurish va oshkoralik " davri O‘tkir Hoshimovga jasorat berdi, deya aytish mumkin.

O‘sha paytdagi O‘zbekiston rahbariyati zehniyatida ashaddiy ateizm mavjudligi hisobga olinsa, bu haqiqatda jasorat namunasi deya eslanadigan qadam.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Urush mavzusi azaldan badiiy adabiyotning faol mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Ushbu motiv G‘arb va Sharq adabiyotida birdek qalamga olingan bo‘lsa-da, turli mintaqa mualliflarining dunyoqarash va yondashuvlarida ma‘lum farqlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Bu asosan, qahramon ruhiyati bilan bog‘liq tarzda kechishini alohida ta‘kidlash joiz.

Xususan, G‘arb nasriga mansub urush bilan bog‘liq asarlarda ko‘proq jamiyat va inson o‘rtasidagi ziddiyat ustunlik qilsa, Sharq adabiyotida insonning boshqa bir inson bilan bo‘lgan qarama-qarshiligi asosiy o‘rin tutadi. Binobarin, Yevropa adabiyotida XX asr boshidayoq ruhiy konflikt yetakchi o‘ringa chiqib ulgurgan edi.

Yevropa va Osiyo adabiyotida urush va urush mavzusida yaratilgan asarlar yaratilish uslubi, tanlangan makon va zamon, badiiy g‘oya kabi bir qator jihatlari bilan bir-biridan farqlanib turadi. Bunga asosiy sabab sifatida XX asr Osiyo adabiyotida urush mavzusini qalamga olgan mualliflardan farqli o‘laroq, Yevropa adiblarning front dahshatlarini bevosita boshdan kechirgani, asarlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri urush zobiti tilidan yaratilgani va o‘sha davr G‘arb davlatlarida hukm surgan ijtimoiy-siyosiy tanazzul bilan izohlash mumkin. Shunday bo‘lsa-da, urush va inson mavzusida yaratilgan jahon adabiyoti vakillari va o‘zbek adiblari o‘rtasida mushtaraklik yaqqol sezilib turishi ham bor gap.

O‘tkir Hoshimov bu holga o‘zining boshqa bir asari “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”ning “**Urushlar haqida**” deb nomlangan bobida alohida to‘xtalgan:

“Urushda g‘olib va baxtli podshoh, g‘olib va baxtli qo‘shin, g‘olib va baxtli davlat, g‘olib va baxtli tuzum bo‘lishi mumkin. Ammo g‘olib va baxtli odam bo‘lmaydi. Negaki, urush odamni odam o‘ldirishga majbur qiladi. Odam o‘ldirgan odam esa hech qachon baxtli bo‘lmaydi!”, yoki “...Urush, hatto haqiqatning qiyofasini ham teskari qilib qo‘yadi. Urushda haqiqat bo‘lmaydi!”

" Ikki eshik orasi" romani O‘tkir Hoshimov merosining asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. “Ikki eshik orasi” asari 1985-yil yozilgan. Ushbu asarda **urush** bosh mavzu qilib olingan. Darhaqiqat, urush ko‘plab insonlarning yostig‘ini quritgan. Onalarni boladan,

bolalarni otasidan , yana kimnidir qadrlı insonlaridan ayirgan. Balki yozuvchining urush mavzusiga ko'p e'tibor qaratgani bejiz emasdir. Aslida bu voqealarning barchasi yozuvchining ko'z o'ngida, guvohligida bo'lgan. Uning ta' sirchanligi ham shundadir. Urush mavzusiga murojat qilar ekanmiz, albatta bunungi kunda ham dolzarbligini yuqotmaganligini inobatga olish kerak.

Asarlarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi mahorat bilan tasvirlangan. Adib birinchi navbatda tinchlikka rahna solayotgan urushni tilga olgan. Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatları - mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr- bardoshi haqida so'zlaydi. Yozuvchi roman voqealarini teran o'rgangani uchun har bir epizod o'quvchini qalbiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Asar yetti qism, qirq yetti bobdan iborat. Undagi hodisalar bayonida qatnashgan 9 ta personaj hikoyalari adib bir- biriga mahorat bilan bog'lagan. " Ikki eshik orasi" romanidagi Orif oqsoqol, Husan duma, Komil tabib obrazlari yoritib berilgan. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko'rk bag' ishlaydi. Asarda adib qariyb qirq yillik davrni o'z ichiga olgan bir qancha murakkab taqdirlar misolida o'zbek xalqining urush davridagi hayoti, umr yo'lidagi chigalliklarni mahorat bilan qalamga oladi. Romanda urush ko'plab fojialar olib kelgan. Masalan, birgina urush sababli Robiya o'z suyuklisidan, qora amma yakka- yu yolg'iz o'g'lidani ayrladi. Bunday og'ir dard Orif oqsoqol va Komil tabibdek ko'pgina insonlarning xonadonini ham chetlab o'tmaydi. Hattoki bu qora urush keyingi avlod Muzaffar va Munavvarning sof sevgisiga ham ta'sir qilib, ularni baxtsiz qiladi. Asarni o'qigan kitobxon ijodkorning o'sha davr ruhini asarda to'liq mujassam ettira olganligiga guvoh bo'ladi. " Dunyoning ishlari " qissasi ham katta- kichik hikoyalardan iborat. Ushbu asarda jonli va hayotiy tasvirlar, o'zbekona yondashuv va xarakter, qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar mutolaa ta'sirini kuchaytirgan. Asar adibning bolalik davridagi voqealar asosida qurilgan . Sovet davridagi oddiy qishloq oilalari, odamlar turmush tarzi adibning onasi bilan uyg'unlashtirib tasvirlangan. O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad "Dunyoning ishlari " qissasiga shunday tarif bergan: " "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onlarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang tura oladi . Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi."

Xulosa qilib aytganda bo'lsak, bu ikki asar ham o'zbek adabiyotida bebahodir. Ular kitobxonni insoniylikka, iymon va insofga chaqiradi. Insonlarni to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi. Nafaqat bu asarlar balki, O'tkir Hoshimovning boshqa asarlarida ham urush qoralanadi, chunki urush insoniyat tarixida o'chmas qora iz qoldirgan. Hattoki minglab chaqirim uzoqdagi insonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Faqtagina minglab chaqirim emas, balki o'n yigirma yillar keyingi davrga ham yomon ta'sir ko'rsatadi. So'zimning isboti esa yuqoridagi asarlarda. Asarlarda urushning bir necha o'n yillar keyingi taqdirlarga ham fojia olib kelib, yomon ta'sir o'tkazgani eng ayanchlisi. Shunday ekan, biz bu asarlardan to'g'ri xulosa chiqarib, bugungi kunga shukronalik bildirishimiz kerak.

REFERENCES:

1. O'tkir Hoshimov, "Ikki eshik orasi" romani, "Ilm -ziyo-zakovat" Toshkent-2019.
2. O'tkir Hoshimov, "Dunyoning ishlari" qissasi, "Ilm-ziyo-zakovat" Toshkent 2019.
3. www.kutubxonachi.uz.

